



Nargiza BO'RIYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
E-mail: nargizaburiyeva1980@mail.ru

DSc, professor N.Soatova taqrizi asosida

THE ARTISTIC AND LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD IN THE WORKS OF J.R.R. TOLKIEN

Annotation

The article provides a deep analysis of the artistic and linguistic picture of the world in the works of J. R. R. Tolkien. The study examines how the writer used language to create a fictional world, its artistic and cultural role, as well as the role of language in shaping a worldview. The article analyzes Tolkien's methods of creating language and linguistic constructions in his works, based on Humboldt's ideas about language. The methods of linguistic and literary analysis were used as the research methodology. As a result, the depiction of the world through language in Tolkien's works opens up the possibility of a deeper and broader understanding of the role of language through its meaning in the cultural context. The article puts forward new theoretical views and practical recommendations in the field of literary criticism and linguistics.

Key words: linguistic picture of the world, lexicography, geographical, cosmogony, epic, secondary world, metonymic, divine beings.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ И ЯЗЫКОВОЙ ЛАНДШАФТ МИРА В ТВОРЧЕСТВЕ Дж. Р. Р. ТОЛКИНА

Аннотация

В статье дается глубокий анализ художественного и языкового ландшафта мира в произведениях Дж. Р. Р. Толкина. В исследовании рассматривается, как писатель использовал язык для создания вымышленного мира, его художественная и культурная роль, а также роль языка в формировании мировоззрения. В статье анализируются методы создания языка Толкином и языковые конструкции в его произведениях, опираясь на представления Гумбольдта о языке. В качестве методологии исследования использовались методы лингвистического и литературного анализа. В результате изображение мира посредством языка в произведениях Толкина открывает возможность более глубокого и широкого понимания роли языка через его значение в культурном контексте. В статье выдвигаются новые теоретические взгляды и практические рекомендации в области литературоведения и языкознания.

Ключевые слова: лингвистическая картина мира, лексикография, географический, космогония, эпос, вторичный мир, метонимический, божественные существа.

J.R.R.TOLKIN ASARLARIDA OLAMNING BADIY VA LISONIY MANZARASI

Annotasiya

Ushbu maqolada J.R.R.Tolkin asarlarida olamning badiiy va lisoniy manzarasi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining fantastik dunyo yaratishda tilni qanday ishlatganligi, uning badiiy va madaniy o'rni, shuningdek, tilning dunyoqarashni shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqolada Gumboldtning til haqidagi g'oyalariga asoslanib, Tolkinning til yaratish usullari va uning asarlaridagi lingvistik konstruksiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida lingvistik va adabiy tahlil usullari qo'llanilgan. Natijada, Tolkinning asarlarida olamning til orqali tasvirlanishi, madaniy kontekstdagi ahamiyati orqali tilning rolini chuqurroq va kengroq anglash imkoniyati ochiladi. Maqola adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarida yangi nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: olamning lisoniy mazarasi, leksikografiya, geografik, kosmogoniya, epos, ikkilamchi dunyo, metonimik, ilohiy mavjudotlar.

Kirish. Tillar ma'nolarni ajratish usuli, dunyoni qabul qilish va tushunish usuli bilan farqlanadi. Bu g'oya lingvistikaning eng muhim davrlarida turli shakl va versiyalarda rivojlanib kelgan. U V.Gumboldtning tilning "ichki shakli" haqidagi o'g'itlariga borib taqaladi. Uning ta'limotiga ko'ra, turli tillar turli dunyoqarashlardir va har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari uni gapiradigan xalqning "til ong'i bilan bog'liq. Keyinchalik, bu o'g'itning mazmuni quyidagicha qisqacha ifodalanadi: turli tillarda so'zlashadigan va turli madaniyatlarga mansub bo'lgan odamlar dunyoni turlicha qabul qiladilar. "Biz tabiatni tilimizning ko'rsatmalariga qarab ajratamiz. Biz dunyodagi hodisalarni o'z-o'zidan ravshan bo'lganligi uchun emas, balki bizning ongimiz, asosan bizning ongimizdagi til tizimi tomonidan tashkil etilishi kerak bo'lgan kaleydoskopik taassurotlar oqimi sifatida ko'ramiz". Til uning so'zlovchilarining fikrlash tarzini belgilaydi, atrof-muhitni anglash usuli tilga bog'liq. Shundan kelib chiqib, savol tug'iladi: nima birinchi navbatda bo'ladi, qaysi biri boshqa biriga ta'sir qiladi - atrof-muhitni qabul qilish va tushunish xususiyatlari xulq-atvor normalariga ta'sir qiladimi yoki shaxsning xulq-atvori ongga ta'sir qiladi. Bizning dunyo tasavvurimiz olamimiz lisoniy manzarasi bilan bog'liq ravishda shakllanadi. [6]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fantastik adabiyotda til va xalq og'zaki ijodini o'rganish turli ilmiy ishlar bilan chuqur boyidi. Denhamning "The Denham Tracts" [1] asari folklorga oid asosiy tushunchalarni taqdim etadi va Tolkien asaridagi mifologik elementlarni tushunish uchun muhim kontekstni taqdim etadi. R.Noel [2] Tolkin yaratgan tillarning nozik tomonlarini o'rganib, lingvistik tanlovlar uning qahramonlarining madaniy o'ziga xosligini qanday shakllantirishiga urg'u beradi. Apresyan [3] va Kolshanskiy [8] kabi rus olimlari til tuzilmasi va dunyoqarash o'rtaqidagi bog'liqlikni ta'kidlab, til tizimlarini tushunishimizga hissa qo'shadilar. Bundan tashqari, Gumboldtning [6] tilning inson taraqqiyotiga ta'siri haqidagi nazariyalari Tolkien tillarining uning dunyosining axloqiy va ma'naviy o'lchovlarini shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi. Folklor, til va jamiyatning uyg'unligi Dobrovol'skaya [7] tomonidan ham ko'rib chiqiladi, u fantastiya janrining folkloridagi ildizlarini muhokama qiladi

R. Noelning lug'ati, so'z yasash asoslarining manba tillari haqidagi qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi [2]. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, bu qismning asosida qadimgi ingliz, o'rta ingliz, islandiya, lotin, got, qadimgi yuqori nemis, shuningdek, slavyan va skandinav tillarining ildizlari yotadi. Qadimgi ingliz va

o'rta ingliz elementlarining shaxsiy nomlar orasidagi ustun roli shundaki, aynan ingliz tilining arxaik varianti muallif tomonidan Rohanning ("Rohan") aholisi tilining tasvirlanishi uchun tanlangan. Bu, shuningdek, Tolkin tomonidan yaratilgan bu tasavvuriy qirolikning asosiy tarmog'i bo'lib, aholisining, shuningdek, hobbitlarning so'z yasash strukturasi qadimgi ingliz tilidan olingan so'zlar ko'p ekanligini tushuntiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu guruh nomlarining semantik mazmuni romanning syujet kontekstida to'g'ri aks ettirilgan va ularning tarkibiy qismlarining haqiqiy semantik ma'nosiga mos keladi. Bunga misol qilib, murtad sehrgar Sarumanning nomini keltirish mumkin: "Saruman" - "hunarmand, sehrgar", qadimgi inglizcha "searu" (san'at, jodugarlik, mahorat), ijobiy va salbiy ma'noga ega bo'lgan so'z.

Boshqa bir misol – "Guthwine" qilichi nomi – qadimgi inglizcha so'z bo'lib, «jangdagi do'st» degan ma'noni anglatadi – bu jangovar qilich uchun an'anaviy badiiy tasvir. "Ork" so'zining etimologiyasi ham qiziqarli, chunki u hozirda "fentezi" adabiyotida va kompyuter o'yinlarida keng tarqalgan. Ammo, "Orcus" lotincha so'zi, qadimgi Rim mifologiyasida qotil-iblis, iloh yoki o'lim dargohini ifodalovchi sifatida ko'proq ma'lum. J.R.R. Tolkin ushbu so'zni qirg'inchilik va vayronagarchilikka mukkasdan ketgan qabilani atash uchun ishlatishdan oldin, bu so'z biologlar tomonidan baliqlarning lotincha tur nomi sifatida asosan kitlar (shuningdek, "kit-qotil" deb ataladigan) turidek tanilgan edi. Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, ushbu toifadagi ism va atamalar asosga ega. (Qo'shimcha misollar – daryo bo'yidagi qoya tosh orolning nomi "Carrock" – qadimgi inglizcha "carr" (tosh, qoya) va "rocc" (qoya) so'zlaridan olingan, "Dernhelm" ismi – "maxfiy dubulg'a" – jangchi qiyofasiga kirgan qahramon tomonidan tanlangan ism.)

Rut Noel'ning glossariysida Islandiya ildizlari juda ko'p uchraydi, ular Tolkin tomonidan gnomlarning ismlarini yaratishda ishlatilgan. Semantik ma'no, garchi odatda bu ismlar tavsiflovchi xarakterga ega bo'lsa-da, ism tanlashda asosiy ahamiyatga ega bo'lmagan. Misollar: "Fundin" – «topilma», "Oin" – island tilidagi «oinn» – «qo'rqqoq, qo'rqqan», "Thorin" – «jasoratli», "Thrain" – islan tilidagi «thrainn» – «qaysar», "Gandalf" – «elf-jodugar». [2] Ushbu guruhdagi ismlarning ba'zi bir tasodifiy tanlovi, masalan, "Hobbit"ning dastlabki versiyasida "Gandalf" ismi gnomga berilganini ko'rsatadi, keyinchalik esa u "Thorin" deb tanilgan. Tolkinning "Uzuklar Hukmdori"dagi tarix bilan bog'liq bo'lgan asarlarida ilgari hech qachon ishlatilmagan ko'plab ismlar uchraydi. Ikkita hobbit ismi istisno hisoblanadi: bu Tom va Sem (Semning to'liq ismi oddiy emas: Semuayz, ya'ni Sem Aqli). Odamlar ismlari ham boshqacha eshitiladi: Yomer, Yovin, Aragorn, Paremira va boshqalar. Hobbitlar ismlari: Bilbo, Meriadok, Peregrin, Hemfast; boshqa qahramonlarning ismlari: elf Legolas, odam Tom Bombadil. Ushbu ismlar uslubi butun asarning Skandinaviya o'rta asrlari stilizatsiyasiga aniq mos keladi.

Ko'pchilik hobbitlarni ixtiro qilingan mavjudotlar deb hisoblaydi, ularni ingliz yozuvchisi Jon R. R. Tolkin yaratgan deb o'ylaydi. Aslida esa, hobbitlar haqida ilgari ma'lumotlar mavjud edi. O'rta asrlar yozuvchisi Maykl Denxem, "Denxem traktatlari" asarida quyidagi xususiy mavjudotlar ro'yxatini keltirgan: "... ikkinchi nusxalar, bouglar, portunlar, grantlar, hobbitlar, hobgoblinlar, dannilar..." [1]

Ikkinchi toifaga tabiiy tillardan kelib chiqqan, ammo Tolkinning asarlari va leksikonlarida boshqa semantik talqinga ega bo'lgan so'zlar kiradi. Ba'zan bunday semantik metamorfotlar ma'no yaqinligiga, metaforik ko'chishga yoki asl ma'noning antonimik o'zgartirilishiga asoslanadi. Muallifning bunday semantik talqining misoli – ilgari aytib o'tgan "Earendel" so'zi. "Earendel" - bu qadimgi ingliz tilidan olingan so'z bo'lib, dastlab «ertalabki yulduz» yoki «tong» degan ma'noni anglatardi. Uning dastlabki kontekstida bu so'z anglosakson mifologiyasi va she'riyati bilan bog'liq bo'lib, u yorug'lik va umidni ramzlagan osmon jismini tasvirlash uchun metafora sifatida ishlatilgan. Bu so'z "Silmarillion"da "Earendel" - nur ramzi bo'lgan va ilohiy mavjudotlar bilan bog'liq bo'lgan, Tolkinning voqealarida muhim rol o'ynaydigan qahramonni ifodalash uchun ishlatiladi.

Qiziqarli misol – "Orthanc" qal'asi nomi, bu semantik blendni tashkil etadi va asar voqealarida qiziqarli tarzda aks etadi. Qadimgi inglizcha "orthanc" so'zi, R. Noelning ma'lumotlariga ko'ra, «aql, mahorat, texnik san'at» degan ma'noni anglatadi, ammo "Sindarin" leksikonida bu so'zning boshqa ma'nosi mavjud – "mount fang", ya'ni tog', qoziqtish. Ikkala ma'no ham kontekstdan kelib chiqqan holda yuzaga keladi – qal'aning baland minorasi, tog' cho'qqisiga o'xshab, muhandislik san'ati durdonasi hisoblanadi va ilgari aytib o'tilgan sehrgar Sarumanning qarorgohi bo'lib xizmat qiladi. "Numenor" oroli nomi «g'arbdagi yer» degan ma'noni anglatadi, "numen" so'zidan olingan bo'lib, «g'arb» degan ma'noni bildiradi. Biroq, lotincha "numen" so'zi ruh ma'nosini anglatadi. Ko'rinish turibdiki, bu yerda ma'no o'zgarishi metonimiyalidir va qadimgi keltlarning e'tiqodiga asoslanadi, ya'ni g'arb – ilohiy mavjudotlar va o'liklar ruhlarining yashash joyi deb hisoblangan. [2] Boshqa bir qadimgi misol – bu qadimgi Yunoniston mifologiyasida g'arbda, Yelisey orollari haqida afsonalar bor edi. Shuningdek, o'rta asrlar xristian Evropasida ham odamlar yerning jannatini g'arbda, Atlantika okeanidagi orollardan birida qidirishlari kerak deb hisoblashgan (bu bilan bog'liq ravishda, masalan, IX asrdagi Irlandiyaning "Ilohiy Brendanning sayohati" haqidagi eposini eslash mumkin) [9].

Atoqli otlarning uchinchi guruhi – eng kam sonli, lekin unga ikkita asosiy qahramonning ismlari – "Frodo" va "Bilbo" kiradi. R. Noel ushbu ismlarning etimologiyasiga o'zining talqinini taqdim etadi. Uning fikriga ko'ra, Bilbo – usta qilichga ega bo'lgan hobbitning ismi, Bilbao – Ispaniyaning po'latni kuydirish bilan mashhur bo'lgan bir hudud nomidan olingan. "Frodo" uning ta'rifiga ko'ra, qadimgi inglizcha "freoda" so'zidan kelib chiqqan – «himoyachi, qo'riqchi», bu, albatta, voqeaga mos keladi, lekin, ehtimol, oddiy tasodifdir – romaning dastlabki variantida bu ism boshqa bir qahramonga tegishli edi.

Kengroq ehtimolga ega bo'lgan versiya shundaki, "Frodo" ismi aslida "Froda" ning o'zgartirilgan shakli bo'lib, bu ism "Beowulf"da uchraydi va albatta, ingliz tili tarixini yaxshi bilgan, qadimgi ingliz eposi bo'yicha mashhur talqinchi bo'lgan professor J. R. R. Tolkin uchun juda yaxshi tanish bo'lgan.

Ko'rib chiqilgan atoqli otlar turlariga Tolkinning tillaridan olingan asoslardan hosil bo'lgan o'ziga xos ism va nomlar kiritilmagan. Bunday atoqli otlarning "ikkilamchi dunyo"ni yaratish va tashkil etishdagi funksiyalari ancha kengroq va ma'lum bir o'ziga xoslikka ega. Avvalo, atoqli otlar mavhum tushunchalarni, ayniqsa, xossalarni bildiruvchi abstract tushunchalarni tilda amalga oshirish uchun makonni ifodalaydi. Mavjud materiallardan ko'rinish turibdiki, Tolkin tillarida tabiiy tillarga xos bo'lgan noaniqlik yo'q, bu yerda "har bir so'z idrok etilgan narsani umumlashtiradi va qismlarga ajratadi. "Ma'no, vazn, o'lcham, shakl va boshqalar yaxlitlikdan alohida mavjud emas, lekin ularni ifodalovchi alohida so'zlar mavjud." Tolkinning sun'iy tilida, xususiyatni ifodalovchi element, ko'proq narsaga qora rang, balandlik va shunga o'xshash tushunchalarni yetkazadi va bu, ismga xos bo'lgan xususiyat kabi, uni butun holda ajralmas qilib ko'rsatadi. Shu bilan birga, «narsa xususiyat orqali nomlanadi, ... va o'z xususiyati bilan birga, shu xususiyatga ega bo'lgan narsalar sinfini ham ko'rsatadi» [8].

Bunday ma'lumot, atoqli otlarning tarkibi va xarakterida mavjud bo'lib, tilshunoslikda "ismga joylashtirilgan til ma'lumotlari" deb ataladi. Til ma'lumotlaridan tashqari, atoqli ot yana ikki turdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: nutqiy va ensiklopedik. Nutqiy ma'lumotlar ostida ismning obyekt bilan bog'liqligi va ismni qo'llovchi shaxsning obyektga bo'lgan munosabati tushuniladi. Ushbu ma'lumotdan kelib chiqadigan birinchi xulosa shundan iboratki, "obyekt bilan dastlabki tanishuv allaqachon amalga oshgan, chunki bu – ismni nutqqa kiritish uchun zarur bo'lgan shartdir". Atoqli otlar ikkilamchi dunyoning predmetlik kategoriyasidan ekanligining kafolati sifatida qabul qilinadi, chunki real dunyoda "ism faqat narsa sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan fazo-vaqtning qismlari yoki chegaralariga beriladi" [11], hamda bu dunyoda haqiqat va yolg'on munosabatlarining mavjudligini bildiradi, chunki hatto begona atoqli otlar ham kamida presuppozitsiya illyuziyasini yaratadi.

Agar yuqorida keltirilgan birinchi jumla o'quvchi uchun tushunarli bo'lmasa, uning sababi shundaki, o'quvchi uchinchi turdagi ma'lumot – ensiklopedik ma'lumotlarga ega emas, ya'ni obyekt haqidagi bilimlar majmui. Ko'rinishidan, Tolkinning maqsadi, o'zining asarlari misolida atoqli otda mavjud bo'lmagan ma'lumotni yaratish qobiliyati borligini isbotlash bo'lgan. Chunki ma'lumot ism tomonidan yaratilgan, tashqaridan tasdiqlanmagan, shuning uchun bunday ensiklopedik ma'lumot – afsonadir.

Tahlil va natijalar. Atoqli otlar Tolkin asarlaridagi sun'iy til materialining asosi bo'lib, tarixiy istiqbol hissini uyg'otish va ilmiylikdan chetga chiqmaslik imkonini beradi. Darhaqiqat, arxeologlar tomonidan topilgan matnlarda aynan xos nomlar tez-tez uchraydi va bu qadimiy onomastik tizimlarning qoldiqlari yo'qolgan tillarning xususiyatlarini saqlab qoladi va ularni hech bo'lmaganda qisman qayta tiklashga imkon beradi. Bundan tashqari, ismlarning umumiy semantikasi ularning hissiy-ekspressiv imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu kategoriyalar «bu guruhlar yoki alohida shaxslar uchun estetik qadriyatlar, ularning go'zalligi yoki xunukligi, xushohangligi yoki yoqimsizligi bilan bog'liq» [11].

Tolkinda bu aniq kuzatilgan folklor tasviri emas, balki badiiy ixtiro mahsulidir, aniqlik, badiiy muallif tomonidan to'ldirilgan va batafsil ishlab chiqilgan folklor obrazidir. Uning barcha xalqlari - bu ma'lum bir inson turining tasviridir. Xobbitlar - bu mehribon, uyda o'tirmoqni afzal ko'radigan odamlardir, elflar - ijodiy tabiatga ega, intellektualar, gnomlar - hunarmandlar, mahoratli xalq ustalari, mehnatkashlardir. Tolkinda insonlar ham bor - O'rta yer xalqining odamlari, ular - yozuvchi haqiqiy insonlarni qanday ko'rishni xohlasa, shundaydirlar.

Shunday qilib, tasavvuriy dunyoni qurishda Tolkin ko'plab manbalarni, turli davrlar va xalqlar bilan bog'liq bo'lganlarni, ongli ravishda va maqsadli ravishda qayta ishlagan. Agar epik asarlarda ism va nomlar ta'sir yaratish vositasi bo'lsa, Tolkinda bu shuningdek, qahramonlarning xarakterini belgilash va ko'pincha - muallifning pozitsiyasini ifodalash imkoniyatidir.

Uning yaratgan nomlari ko'plab tasavvurlarni uyg'otadi, bu esa tasvirning ko'p qirraliligini yaratadi. Xayoliy mamlakat va vaqtdagi nomlar Tolkin tomonidan alohida e'tibor bilan ishlab chiqilgan, chunki ismlar - bu yashirin obrazlardir va yozuvchining vazifasi - isming mohiyatini asar ichida ochib berishdir.

Tolkinning kartografiyasi

Arda dunyosini yaratish, uning kosmogoniyasi, geografiyasi, tarixi, eposi va tillarini puxta ishlab chiqish

yozuvchilikning tasodifiy mahsuli emasdi, bu haqiqatnamolik yoki muhit yaratish vositasi ham emas, balki alohida qiziqishning maqsadi va predmeti edi.

Afsonaga ko'ra, "Xobbit" 1928 yilda professor Tolkinning yozuv imtihon ishlarini zerikib tekshirib o'tirgan paytida, o'z-o'zidan bir qatorga tushgan yagona iboradan kelib chiqqan: "In a hole in the ground there lived a Hobbit" ("Yer ostidagi teshikda xobbit yashardi"). Tolkinning tabiati uni xobbitlar kimlar, ular qaysi teshiklarda yashaydi, nega teshiklarda yashaydi va ular O'rta Yerdan qanday vazifaga ega degan savollarga javob topishga majbur qilgan. O'rta Yer xaritasi chizilmasdan turib, Xobbitaniya qayerda joylashganini ko'rsatish mumkin emasdi, va shu jarayonda xobbitlarning kelib chiqishi, odatlari va urf-odatlarini aniqlanib bordi - hamda ularning mamlakatidagi ichki bo'linish ham oydinlashdi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Tolkinning hikoya qilish uslubi juda, agar shunday deyish mumkin bo'lsa, geografikdir. Qahramonlar doimo yo'lda bo'ladilar: boshlang'ich nuqta, maqsad, yo'l qaysi hududdan o'tishi ham ma'lum. Bunday hikoya qilish uslubi batafsil va aniq xaritalarsiz to'liq bo'lmaydi. Tolkin Arda va O'rta Yer tarixidagi voqealarni tushunish maqsadida, shunday xaritalarni avval o'zi uchun chizgan. Keyinchalik bu xaritalar uning kitoblarida nashr etilgan.

Tadqiqotlar jarayonida dunyo tasavvuri tushunchasi zamonaviy lingvokulturologiya va semiotika sohalariga uzviy ravishda kirib borgan bo'lib, ularning vazifalariga dunyodagi bir nechta madaniyatlarining holatini va insoniyatning genezis jarayonlarini tushunish kiradi. Hozirgi tilshunoslik rivojlanish bosqichida, olamning lisoniy modellari inson haqidagi fanlar doirasida tavsiflanadi va talqin qilinadi. Olamning har qanday badiiy va lisoniy manzarasi nafaqat o'sha xalqning og'zaki ijodi, mifologiyasi, madaniyati, tarixi, an'analari va psixologiyasi kontekstida, balki tilshunoslik kontekstida ham ko'rib chiqiladi. Semantika va leksikografiyaning hozirgi rivojlanish bosqichidagi eng muhim vazifasi leksik va grammatik ma'nolarni tavsiflash asosida dunyoning sodda modelini qayta qurishdir.

"Uzoklar hukmdori"ni yaratishda Tolkin bolaligidanoq yaxshi bilgan sevimli Skandinaviya mifologiyasiga tayangan. Shunday qilib, muallifning mifologiyasida tasvirlangan til tasavvuri, o'z navbatida, atoqli otlar asosiga qurilgan, deb aytish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Denham, M. A. (1859). The Denham tracts: A collection of folklore (James Hardy, Ed.). Folklore Society. (Original work published 1859). London, United Kingdom. pp. 45-50. / 416 pages.
2. Noel, R. S. The languages of Tolkien's Middle-earth. Houghton Mifflin. Boston, USA. 1980. 224 p.
3. Апресян Ю. Д. Избранные труды.- Т. II. Интегральное описание языка и системная лексикография. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1995.
4. Беовульф. Старшая Эдда. Песнь о Нибелунгах. М.: Художественная литература, 1975.
5. Губайловский В. Обоснование счастья: О природе фэнтези и первооткрывателе жанра / В. Губайловский // Новый мир. – 2002. – №3. – С. 174 – 185.
6. Гумбольдт В. О. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. - М., 1984. - С. 156-180.
7. Добровольская О. Фэнтези и фольклор / О. Добровольская // Литература. – 1996. – №43. – С. 13.
8. Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. М., 1990.
9. Онианс Р. На коленях богов. М., 1999. С.121
10. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного: Имя и общество; Статус имени собственного; Ономастическое пространство и классификация имен и др. Изд. 2-е, испр.